

BO‘LAJAK TARBIYACHILARNING KREATIV KOMPETENSIYALARINI RIVOJLANTIRISH METODIKASI

Ziyayeva Umida To‘raxodjayevna

Nizomiy nomidagi O‘zbekiston milliy pedagogika universiteti

“Maktabgacha va boshlang‘ich ta‘lim” fakulteti Maktabgacha ta‘lim nazariyasi va
metodikasi kafedrası o‘qıtuvchısı

<https://doi.org/10.5281/zenodo.20175271>

Annotatsiya

Mazkur maqolada bo‘lajak tarbiyachilarning kreativ kompetensiyalarini rivojlantirishning nazariy-pedagogik asoslari, mazmuni hamda amaliy ahamiyati yoritilgan. Zamonaviy ta‘lim tizimida pedagog shaxsining ijodiy salohiyati, innovatsion fikrlashi va nostandart pedagogik vaziyatlarga mos yechim topa olish qobiliyati muhim omil sifatida talqin etiladi. Shu nuqtai nazardan, bo‘lajak tarbiyachilarda kreativ kompetensiyani shakllantirishning samarali metod va texnologiyalarini aniqlash dolzarb masala hisoblanadi. Maqolada kreativ kompetensiyaning tarkibiy komponentlari, uni rivojlantirishga ta‘sir etuvchi pedagogik shart-sharoitlar hamda interfaol metodlar, muammoli ta‘lim, loyiha asosida o‘qitish va raqamli texnologiyalarning imkoniyatlari tahlil qilingan. Shuningdek, kreativ kompetensiyalarni rivojlantirish jarayonida talabalarning mustaqil fikrlashi, ijodiy faoliyati, kommunikativ ko‘nikmalari va kasbiy motivatsiyasini shakllantirish masalalariga alohida e‘tibor qaratilgan. Tadqiqot natijalariga ko‘ra, innovatsion pedagogik yondashuvlardan foydalanish bo‘lajak tarbiyachilarning kasbiy tayyorgarligi samaradorligini oshiradi, ularning pedagogik faoliyatga kreativ munosabatini shakllantiradi hamda maktabgacha ta‘lim jarayonini sifat jihatidan takomillashtirishga xizmat qiladi.

Kalit so‘zlar: kreativ kompetensiya, kreativ fikrlash, pedagogik texnologiyalar, innovatsion yondashuv, bo‘lajak tarbiyachi, kasbiy kompetensiya, interfaol metodlar.

Abstract

This article discusses the theoretical and pedagogical foundations, content and practical significance of developing creative competencies of future educators. In the modern education system, the creative potential of the pedagogical personality, innovative thinking and the ability to find appropriate solutions to non-standard pedagogical situations are interpreted as important factors. From this point of view, identifying effective methods and technologies for the formation of creative competencies in future educators is a pressing issue. The article analyzes the structural components of creative competence, pedagogical conditions affecting its development, as well as the possibilities of interactive methods, problem-based learning, project-based learning and digital technologies. Also, special attention is paid to the issues of forming students' independent thinking, creative activity, communicative skills and professional motivation in the process of developing creative competencies. According to the results of the study, the use of innovative pedagogical approaches increases the effectiveness of the professional training of future educators, forms their creative attitude to pedagogical activity and serves to qualitatively improve the preschool educational process.

Keywords: creative competence, creative thinking, pedagogical technologies, innovative approach, future educator, professional competence, interactive methods.

Аннотация

В данной статье рассматриваются теоретические и педагогические основы, содержание и практическое значение развития творческих компетенций будущих педагогов. В современной системе образования важными факторами рассматриваются творческий потенциал педагогической личности, новаторское мышление и способность находить адекватные решения нестандартных педагогических ситуаций. С этой точки зрения актуальной задачей является выявление эффективных методов и технологий формирования творческих компетенций у будущих педагогов. В статье анализируются структурные компоненты творческой компетенции, педагогические условия, влияющие на ее развитие, а также возможности интерактивных методов, проблемно-ориентированного обучения, проектного обучения и цифровых технологий. Особое внимание уделяется вопросам формирования у учащихся самостоятельного мышления, творческой активности, коммуникативных навыков и профессиональной мотивации в процессе развития творческих компетенций. По результатам исследования, использование инновационных педагогических подходов повышает эффективность профессиональной подготовки будущих педагогов, формирует их творческое отношение к педагогической деятельности и способствует качественному совершенствованию дошкольного образовательного процесса.

Ключевые слова: творческая компетентность, творческое мышление, педагогические технологии, инновационный подход, будущий педагог, профессиональная компетентность, интерактивные методы.

Kirish

Bugungi kunda dunyo ta'lim tizimida yuz berayotgan globallashuv jarayonlari, innovatsion texnologiyalarning jadal rivojlanishi hamda jamiyatning intellektual salohiyatga bo'lgan ehtiyoji pedagog kadrlar tayyorlash tizimiga ham yangi talablarni qo'ymoqda. Ayniqsa, maktabgacha ta'lim tizimida faoliyat yurituvchi tarbiyachilar nafaqat chuqur kasbiy bilim va pedagogik mahoratga, balki kreativ fikrlash, muammoli vaziyatlarga ijodiy yondasha olish hamda ta'lim jarayonini zamonaviy metodlar asosida tashkil eta olish kompetensiyalariga ega bo'lishi zarur. Shu sababli bo'lajak tarbiyachilarning kreativ kompetensiyalarini rivojlantirish bugungi pedagogik ta'limning eng dolzarb yo'nalishlaridan biri sifatida namoyon bo'lmoqda.

Mamlakatimizda maktabgacha ta'lim tizimini tubdan isloh qilish, ta'lim sifatini oshirish hamda raqobatbardosh pedagog kadrlarni tayyorlashga qaratilgan qator me'yoriy-huquqiy hujjatlar qabul qilinmoqda. Ushbu hujjatlarda pedagoglarning kasbiy kompetentligini rivojlantirish, innovatsion faoliyatini qo'llab-quvvatlash va ijodiy salohiyatini oshirish masalalariga alohida e'tibor qaratilgan. Chunki bugungi tarbiyachi faqat bilim beruvchi emas, balki bolalarning qiziqishi, qobiliyati va ijodiy imkoniyatlarini yuzaga chiqaruvchi shaxs sifatida namoyon bo'lishi kerak.

Kreativ kompetensiya pedagogning yangi g'oyalarni ilgari sura olishi, noan'anaviy qarorlar qabul qilishi, pedagogik muammolarni samarali hal etishi hamda ta'lim jarayoniga innovatsion yondasha olishini ifodalaydi. Mazkur kompetensiya tarbiyachining kasbiy faoliyatida muhim ahamiyat kasb etib, bolalarda mustaqil fikrlash, ijodkorlik va faollikni rivojlantirishga xizmat qiladi. Ayniqsa, maktabgacha yoshdagi bolalar bilan ishlash jarayonida tarbiyachining kreativ yondashuvi ta'lim samaradorligini oshirishda asosiy omillardan biri hisoblanadi.

Bo'lajak tarbiyachilarning kreativ kompetensiyalarini rivojlantirish jarayoni pedagogik oliy ta'lim muassasalarida tashkil etiladigan nazariy va amaliy mashg'ulotlarning mazmuni bilan chambarchas bog'liqdir. Ta'lim jarayonida interfaol metodlar, muammoli vaziyatlar, loyiha faoliyati, trening mashg'ulotlari hamda axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanish talabalarning ijodiy fikrlash qobiliyatini rivojlantirishda muhim vosita bo'lib xizmat qiladi. Shu bilan birga, talabalarning mustaqil ta'lim faoliyatini qo'llab-quvvatlash, ularni izlanishga undash va pedagogik vaziyatlarni kreativ tahlil qilishga yo'naltirish ham muhim pedagogik shartlardan biri sanaladi.

Ilmiy-pedagogik manbalar tahlili shuni ko'rsatadiki, kreativlik va kompetensiyaviy yondashuv masalalari ko'plab xorijiy va mahalliy olimlar tomonidan tadqiq etilgan bo'lsa-da, aynan bo'lajak tarbiyachilarning kreativ kompetensiyalarini rivojlantirish metodikasini takomillashtirish masalasi hali ham dolzarb ilmiy muammo sifatida saqlanib qolmoqda.

Adabiyotlar tahlili

Pedagogika va psixologiya sohasida olib borilgan ilmiy tadqiqotlarda kreativ kompetensiya masalasi zamonaviy ta'limning muhim tarkibiy qismi sifatida talqin etiladi. Xususan, kreativlik tushunchasi insonning yangicha fikrlashi, noodatiy qarorlar qabul qilishi va mavjud muammolarga innovasion yondasha olishi bilan izohlanadi. Tadqiqotchilarning fikricha, pedagogning kreativ kompetensiyasi ta'lim samaradorligini oshirish bilan birga, o'quvchilarning ijodiy salohiyatini rivojlantirishga ham xizmat qiladi [1, 45-b.].

Kompetensiyaviy yondashuv nazariyasi bo'yicha N.A.Muslimov pedagogning kasbiy tayyorgarligida kreativlik, mustaqil fikrlash va innovasion faoliyat muhim o'rin tutishini ta'kidlaydi. Olimning fikricha, bo'lajak pedagoglarda kreativ kompetensiyani rivojlantirish uchun ta'lim jarayonini interfaol metodlar asosida tashkil etish zarur [2, 67-b.]. Muallif kreativ kompetensiyani pedagogning kasbiy muvaffaqiyatini belgilovchi asosiy omillardan biri sifatida baholaydi.

O'.Tolipov va M.Usmonboyevalarning tadqiqotlarida pedagogik texnologiyalar yordamida talabalarni ijodiy faoliyatga yo'naltirish masalalari yoritilgan. Tadqiqotchilar interfaol metodlar, muammoli ta'lim va loyiha texnologiyalarining talabalar kreativligini rivojlantirishdagi samaradorligini asoslab berganlar [3, 112-b.]. Ularning ta'kidlashicha, ta'lim jarayonida talabalarning mustaqil fikrlashi va ijodiy faoliyatini qo'llab-quvvatlash kreativ kompetensiyaning shakllanishiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi.

N.Sayidahmedov pedagogik innovatsiyalarni ta'lim tizimiga tatbiq etish orqali pedagoglarning ijodiy faoliyatini rivojlantirish mumkinligini qayd etadi. Olim zamonaviy pedagog o'z faoliyatida innovasion texnologiyalarni qo'llashi, ta'lim jarayonini qiziqarli va samarali tashkil etishi lozimligini ta'kidlaydi [4, 83-b.]. Bu esa bo'lajak tarbiyachilarning kreativ salohiyatini shakllantirishda muhim omil hisoblanadi.

Xorijiy olimlardan E.Torranceye kreativlikni insonning muammolarga sezgirligi, yangi g'oyalarni yaratish va ularni amaliyotga tatbiq etish qobiliyati sifatida tavsiflaydi [5, 29-p.]. Muallif tomonidan ishlab chiqilgan kreativ fikrlash mezonlari hozirgi kunda ham pedagogik tadqiqotlarda keng qo'llanilmoqda. J. Guilford esa kreativlikning asosiy ko'rsatkichlari sifatida originallik, moslashuvchanlik va tezkor fikrlashni ko'rsatadi [6, 54-p.].

Shuningdek, K.Rogers va A.Maslou insonparvarlik psixologiyasi doirasida ijodkorlik shaxsning o'zini namoyon etish ehtiyoji bilan bog'liqligini asoslab berganlar [7, 91-p.]. Ularning

fikricha, ta'lim jarayonida erkin va qulay pedagogik muhit yaratish talabalarning kreativ fikrlashini rivojlantirishga xizmat qiladi.

Tahlil qilingan ilmiy manbalar shuni ko'rsatadiki, bo'lajak tarbiyachilarning kreativ kompetensiyalarini rivojlantirish masalasi pedagogik jihatdan muhim ilmiy-amaliy ahamiyatga ega bo'lib, bu borada innovasion metod va texnologiyalarni keng qo'llash zarur hisoblanadi. Ayniqsa, interfaol yondashuvlar, loyiha faoliyati hamda muammoli ta'lim texnologiyalari kreativ kompetensiyaning samarali rivojlanishiga xizmat qiluvchi asosiy omillar sifatida e'tirof etiladi.

Metodologiya

Mazkur tadqiqotda bo'lajak tarbiyachilarning kreativ kompetensiyalarini rivojlantirishga oid pedagogik, psixologik va metodik manbalar tahlil qilindi. Tadqiqot jarayonida kompetensiyaviy yondashuv, shaxsga yo'naltirilgan ta'lim va innovatsion pedagogik texnologiyalar asos qilib olindi.

Shuningdek, kuzatish, suhbat, pedagogik tahlil, taqqoslash va umumlashtirish metodlaridan foydalanildi. Bo'lajak tarbiyachilarning kreativ fikrlashini rivojlantirishda interfaol metodlar, muammoli ta'lim texnologiyasi hamda loyiha asosida o'qitish usullarining samaradorligi o'rganildi. Tadqiqot natijalari asosida kreativ kompetensiyalarni rivojlantirishga xizmat qiluvchi metodik tavsiyalar ishlab chiqildi.

Muhokama va natija

Bo'lajak tarbiyachilarning kreativ kompetensiyalarini rivojlantirish zamonaviy pedagogik ta'limning ustuvor yo'nalishlaridan biri hisoblanadi. Kreativ kompetensiya pedagogning yangilik yaratishga intilishi, pedagogik vaziyatlarga noodatiy yondashuvi, innovatsion fikrlashi hamda ta'lim jarayonini samarali tashkil etish qobiliyatini ifodalaydi. Ayniqsa, maktabgacha ta'lim tizimida faoliyat yurituvchi tarbiyachilar uchun kreativlik muhim kasbiy sifat sanaladi. Chunki maktabgacha yoshdagi bolalar bilan ishlash jarayonida pedagogdan ijodkorlik, moslashuvchanlik va yuqori darajadagi kommunikativ kompetensiya talab etiladi.

Bugungi kunda pedagogik oliy ta'lim muassasalarida bo'lajak tarbiyachilarni tayyorlash jarayonida ularning kreativ kompetensiyalarini rivojlantirishga alohida e'tibor qaratilmoqda. Bu jarayonda nazariy bilimlar bilan bir qatorda amaliy faoliyatga yo'naltirilgan pedagogik texnologiyalar muhim ahamiyat kasb etadi. Kreativ kompetensiyani rivojlantirish talabalarning mustaqil fikrlashi, muammoli vaziyatlarni tahlil qilishi, yangi g'oyalarni ilgari surishi va ijodiy faoliyat olib borishiga xizmat qiladi.

Bo'lajak tarbiyachilarning kreativ kompetensiyalarini rivojlantirishda eng samarali yo'nalishlardan biri interfaol ta'lim metodlaridan foydalanishdir. Interfaol metodlar talabalarning dars jarayonidagi faolligini oshiradi, ularni erkin fikr bildirishga undaydi va ijodiy yondashuvni shakllantiradi. “Aqliy hujum”, “Klaster”, “FSMU”, “Bumerang”, “Debat”, “Keys-stadi” kabi metodlar orqali talabalar pedagogik muammolarni tahlil qilish, jamoa bilan ishlash va innovatsion yechimlar ishlab chiqish ko'nikmalariga ega bo'ladilar. Ayniqsa, “Keys-stadi” texnologiyasi real pedagogik vaziyatlarni modellashtirish orqali talabalarning kasbiy va kreativ tafakkurini rivojlantirishda samarali vosita hisoblanadi.

Muammoli ta'lim texnologiyasi ham kreativ kompetensiyani shakllantirishning muhim omillaridan biri hisoblanadi. Muammoli vaziyatlar asosida tashkil etilgan mashg'ulotlar talabalarning izlanish faoliyatini kuchaytiradi va ularni mustaqil qaror qabul qilishga o'rgatadi. Bunday jarayonda talabalar tayyor bilimni qabul qiluvchi emas, balki muammoning yechimini

izlovchi faol subyekt sifatida ishtirok etadilar. Natijada ularda tahliliy fikrlash, kreativ yondashuv va nostandart qarorlar qabul qilish ko'nikmalari rivojlanadi. Maktabgacha ta'limga oid pedagogik vaziyatlarni muammoli topshiriqlar asosida tashkil etish bo'lajak tarbiyachilarning kasbiy tayyorgarligini yanada mustahkamlaydi.

Kreativ kompetensiyalarni rivojlantirishda loyiha asosida o'qitish texnologiyasi ham alohida ahamiyatga ega. Loyiha faoliyati talabalarni mustaqil izlanishga, ma'lumotlarni tahlil qilishga, yangicha g'oyalar ishlab chiqishga va amaliy natijalar yaratishga yo'naltiradi. Talabalar loyiha ishlari davomida pedagogik faoliyatni rejalashtirish, muammolarni aniqlash va ularni hal etishning innovatsion usullarini o'rganadilar. Shu bilan birga, loyiha faoliyati ularning kommunikativ kompetensiyasi, jamoada ishlash madaniyati va liderlik sifatlarini ham rivojlantiradi.

Zamonaviy ta'lim jarayonida raqamli texnologiyalar va multimedia vositalaridan foydalanish ham bo'lajak tarbiyachilarning kreativ kompetensiyalarini rivojlantirishga xizmat qiladi. Elektron ta'lim resurslari, virtual platformalar, interaktiv dasturlar va multimedia taqdimotlari dars jarayonining samaradorligini oshiradi hamda talabalarning innovatsion fikrlashini shakllantiradi. Raqamli texnologiyalar yordamida talabalarda axborotni izlash, saralash, qayta ishlash va kreativ tarzda taqdim etish ko'nikmalari rivojlanadi. Ayniqsa, maktabgacha ta'lim mashg'ulotlarini multimedia vositalari asosida tashkil etish bolalarda qiziqish va faollikni oshirishga yordam beradi.

Bo'lajak tarbiyachilarning kreativ kompetensiyalarini rivojlantirishda pedagog shaxsining o'rni ham muhim hisoblanadi. O'qituvchi o'z faoliyatida ijodiy yondashuvni namoyon qilsa, talabalarda ham kreativlikka bo'lgan qiziqish ortadi. Shu sababli pedagog ta'lim jarayonida erkin va qulay psixologik muhit yaratishi, talabalarning mustaqil fikrini qo'llab-quvvatlashi hamda ularni ijodiy faoliyatga rag'batlantirishi zarur. Talabalarning erkin fikr bildirishi, yangi g'oyalarni taklif qilishi va xatolardan qo'rqmasligi kreativ kompetensiyaning muvaffaqiyatli shakllanishiga xizmat qiladi.

Shuningdek, bo'lajak tarbiyachilarning kreativ kompetensiyalarini rivojlantirishda amaliy mashg'ulotlar, pedagogik amaliyot va treninglarning ahamiyati katta. Pedagogik amaliyot jarayonida talabalar real ta'lim muhiti bilan tanishadilar, bolalar bilan ishlash ko'nikmalarini egallaydilar va turli pedagogik vaziyatlarga kreativ yondashishni o'rganadilar. Trening mashg'ulotlari esa ularda kommunikativ faollik, tezkor fikrlash va jamoaviy hamkorlik ko'nikmalarini rivojlantiradi.

Bo'lajak tarbiyachilarning kreativ kompetensiyalarini rivojlantirish uzluksiz va tizimli pedagogik jarayon hisoblanadi. Ushbu jarayonda interfaol metodlar, muammoli ta'lim, loyiha texnologiyalari, raqamli vositalar hamda amaliy faoliyatning uyg'unligi muhim pedagogik omil sifatida namoyon bo'ladi. Kreativ kompetensiyaga ega bo'lgan tarbiyachi esa kelajak avlodni zamonaviy bilim va innovatsion fikrlash ruhida tarbiyalashga munosib hissa qo'shadi.

Xulosa

Xulosa qilib aytganda, bo'lajak tarbiyachilarning kreativ kompetensiyalarini rivojlantirish zamonaviy pedagogik ta'limning muhim va dolzarb yo'nalishlaridan biri hisoblanadi. Hozirgi ta'lim jarayonida pedagogdan nafaqat kasbiy bilim va ko'nikmalar, balki ijodiy fikrlash, innovatsion yondashuv hamda pedagogik vaziyatlarga moslashuvchan munosabat bildirish qobiliyati ham talab etilmoqda. Shu bois bo'lajak tarbiyachilarni kreativ faoliyatga tayyorlash ularning kasbiy kompetentligini oshirishda muhim omil bo'lib xizmat qiladi.

Tadqiqot jarayonida interfaol metodlar, muammoli ta’lim texnologiyasi, loyiha asosida o’qitish va raqamli texnologiyalardan foydalanish bo’lajak tarbiyachilarning kreativ kompetensiyalarini samarali rivojlantirishga xizmat qilishi aniqlandi. Mazkur metodlar talabalarning mustaqil fikrlashi, muammolarni tahlil qilishi, innovatsion g’oyalarni ilgari surishi hamda ijodiy faoliyat olib borish ko’nikmalarini shakllantiradi. Ayniqsa, amaliy mashg’ulotlar va pedagogik amaliyot jarayonida talabalarning kreativ yondashuvi yanada rivojlanadi.

Shuningdek, kreativ kompetensiyani rivojlantirishda pedagogik muhit, o’qituvchining kasbiy mahorati va talabalarning erkin ijodiy faoliyatini qo’llab-quvvatlash muhim ahamiyat kasb etadi. Ta’lim jarayonida qulay psixologik muhit yaratish, talabalarning mustaqil fikriga hurmat bilan yondashish hamda ularni innovatsion faoliyatga rag’batlantirish kreativ kompetensiyaning shakllanishiga ijobiy ta’sir ko’rsatadi.

Demak, bo’lajak tarbiyachilarning kreativ kompetensiyalarini rivojlantirish orqali maktabgacha ta’lim tizimi uchun zamonaviy fikrlaydigan, tashabbuskor, innovatsion yondashuvga ega hamda raqobatbardosh pedagog kadrlarni tayyorlash imkoniyati kengayadi. Bu esa o’z navbatida ta’lim sifati va samaradorligini oshirishga, kelajak avlodning ijodiy salohiyatini rivojlantirishga xizmat qiladi.

Adabiyotlar, References, Литературы:

1. Xoliqov A. Pedagogik mahorat. – Toshkent: Iqtisod-moliya, 2018. – 256 b.
2. Muslimov N.A. Pedagogik kompetentlik va kreativlik asoslari. – Toshkent: Fan, 2021. – 214 b.
3. Tolipov O’, Usmonboyeva M. Pedagogik texnologiyalarning tatbiqiy asoslari. – Toshkent: O’qituvchi, 2019. – 320 b.
4. Sayidahmedov N. Yangi pedagogik texnologiyalar. – Toshkent: Moliya, 2020. – 176 b.
5. Torrance E.P. Guiding Creative Talent. – New Jersey: Prentice Hall, 1962. – 278 p.
6. Guilford J.P. The Nature of Human Intelligence. – New York: McGraw-Hill, 1967. – 538 p.
7. Rogers C. Freedom to Learn. – Ohio: Merrill Publishing, 1969. – 358 p.